

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI
O'QITISHDA TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH****Mirzaliyeva Mubina Fizuli qizi****UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES****“Boshlang'ich ta'lim” kunduzgi****101-guruh talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10418038>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari hamda o'quvchilar uchun darslarni qiziqarli tashkillashtirish, dars mazmuniga qo'yilayotgan talablar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quv faoliyati, innovatsion o'yinlar, samaradorlik, sinf jamoasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ta'lim berishda o'qish, yozish, og'zaki nutq bilan bir qatorda qiziqarli she'riy o'yinlar, matematik topishmoqlar, mantiqiy topshiriqlar, sinfdan tashqari o'qish uchun qiziqarli, quvnoq she'rlar tanlash mumkin. Bu kabi topshiriq va she'rlarni tanlashda o'quvchilarning yoshi inobatga olinadi. Darslarni tashkillashda kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ta'limni ko'proq o'yin shaklida tashkillash maqsadga muvofiqdir. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarni fikrini uzoq vaqt bir fikrga jamlab bo'lmaydi. Biror mavzuni yaxshi o'zlashtirishlari uchun avvalo, ularni qiziqitirib olish lozim. Har bir berayotgan bilimni o'qituvchi o'yin orqali izchillikda darsni olib borsa, maqsadiga to'liq erishadi. O'quvchini qiziqitirib olish bu masalaning birinchi bosqichi hisoblanadi. Ikkinchi bosqichda qiziqishni so'ndirmay yetarli ta'limiy o'yinlarni tashkillash va unda o'quvchining ishtirokini amalga oshirish hisoblanadi. Uchinchi bosqichda ta'limiy o'yinlarning xilma- xilligi, dars mavzusiga mosligi, tarbiyaviy ahamiyati, guruh yoki individual harakatlarda o'zini boshqarish, o'zini tuta bilish kabi elementar qoidalar inobatga olinadi. Jamoalarda o'tkazilayotgan o'yinlarda o'quvchilarning liderlik, ahillik, birdamlik kabi qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va aniqlab olish mumkin.

Har bir darsni qanday ta'limiy o'yinlar bilan boyitish, tashkil qilish pedagogning mahoratiga bog'liq. Har bir pedagogda o'ziga xos dars uslubi, bilimni yetkaza olish qobiliyati bor. O'qituvchi o'qitayotgan o'quvchilarining psixologiyasi, o'zlashtira olish layoqatlari, qanday o'qitsa natija yuqori bo'lishini yaxshi biladi. Quyida keltiradigan ta'limiy o'yinlarimizdan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Bu o'yindan o'qish darslarida foydalanish mumkin.

“Zanjir” o'yini.

O'quvchi ixtiyoriy so'z aytadi. Masalan: anor so'zini aytsa, boshqa o'quvchilar navbat bilan so'z oxiridagi harfga so'z topishlari kerak bo'ladi. Anor-randa-alla-antiqa- ajoyib-bebaho...

Shu tariqa davom etadi. So'z topolmagan o'quvchilar o'yinni tark etishadi.

“Domino” o'yini.

Doskaga o'qituvchi uchta qator yoki guruhga alohidadan so'z yozib beradi.

1-guruhga: Mustaqillik

2-guruhga Yurt guruhga Vatan so'zlari beriladi. Guruh a'zolari navbat bilan bir-birlariga qog'ozni uzatib, so'zning oxirigi harfiga takrorlanmagan so'z topib yozadilar.

Belgilangan vaqt ichida eng ko'p so'z yozgan guruh g'olib bo'ladi.

“Topgan topaloq” o'yini .

Ushbu o'yindan matematika darsida foydalansa bo'ladi. Geometrik shakllar mavzusini o'rganish jarayonida, ushbu mavzuni takrorlashda qo'llanadi. O'yin mazmuni quyidagicha: o'quvchilarga kesmaga o'xshash narsalarni topish topshirig'i beriladi. O'quvchilar turli xil javob topadilar. Bu topshiriq bolalarni mantiqiy fikrlash, o'xshata olish malakalarini rivojlantiradi. Kesmaga: qalam, ruchka, chizg'ich, to'ntarilgan bosma shakldagi I harfi o'xshaydi. Keyin aylana so'raladi. Aylanaga: tugma, mashina baloni, qopqoq, kosa, piyola og'zi o'xshaydi.

To'rtburchakka: uy, binolarning devorlari, televizor, daftar, kitob va hokazolar aytiladi. Shu tariqa davom ettirish mumkin.

“Juft va Toq sonlarni top” o'yini.

30 gacha bo'lgan sonlarni ikki guruhga ajratiladi. Bolalar sanaydilar. Juft yoki toq sonlar berilishiga qarab, juft sonni top deyilsa, juft son sanalmaydi, uni aytishi kerak bo'lgan bola chapak chalib bidirishi kerak bo'ladi. Toq sonni topish ham shunday bo'ladi. Agar ishtirokchi yanglishib chappak o'rniga son aytib yuborsa o'yindan chetlatiladi. Bu o'yin ziyraklikni tarbiyalaydi.

“Xotira mashqi “o'yini .

Bu o'yinni ona tili va o'qish darslarida qo'llash juda ham foydali. Ko'chma doskaga oson, yodlashga qulay bo'lgan to'rt qatorli she'r yoziladi. Uch daqiqa ichida shu she'rni yodlash kerak. Ona tili fanida qo'llansa she'r yoddan yoziladi. O'qish darsida esa yoddan ifodali aytib beriladi. Bu singari qiziqarli o'yinlar o'quvchilar faolligini oshiradi, xotira, eslab qolish qobiliyatlarini charxlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tayyorlangan dam olish daqiqasi va sinfdan tashqari o'qish uchun qiziqarli she'rlar.

Har bir fanga alohida dars mavzusiga moslab, dam olish daqiqasi uchun she'rlar harakatlari bilan o'rgatish kerak. She'rni hamma jo'r bo'lib aytib, harakatlarini butun sinf birga bajaradilar. Dam olish daqiqalari o'quvchilarni toliqib, zerikib qolmasliklari uchun o'tkaziladi. O'quvchilarga motivatsiya beradi, charchoqlarini oldini oladi. O'quvchilarning yodlab olish, she'r aytish, guruhda o'zini tutish, hamma birga ahil bo'lib harakat qilish malakalarini tarbiyalaydi.

Bolalarni birdamlikka, inoqlikka o'rgatadi.

References:

1. “Didaktik o'yinlar kitobi” Xorazm viloyati, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'qituvchisi S.Qurbonov
2. “Sinfdan tashqari o'qish darslari va mashg'ulotlarini qiziqarli tashkillashda foydalaniladigan ta'limiy o'yinlar, dam olish daqiqalari uchun she'rlar, topishmoqlar” nomli metodik qo'llanma. Farg'ona viloyati, Quvasoy shahar 29-sonli maktab o'qituvchisi X.Berdibekova.
3. “Didaktik o'yinlarga tanlamalar” (<https://kayabaparts.ru>).